



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIMI – INNOVATSION
RIVOJLANISH YO'LIDA**

**HIGHER EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN – ON
THE PATH OF INNOVATION
DEVELOPMENT**



**XALQARO ILMIY VA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**

Kokand, may 2024

bo‘lmasligi, odam bo‘lishligi xulosa o‘rnida berib o‘tilgan. Bu esa bolalarni kasblarga muhabbatini oshiradi.

O‘qituvchining o‘gitlari

Ey o‘quvchi, bilki, har so‘z
Nondak aziz, nondak uvol.
Til boyligin bir bog‘ desak,
Har bitta so‘z – bitta nihol

...Ey o‘g‘il-qiz, obro‘yingni
Baland tutmoq qo‘lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir

3-sinf O‘qish kitobidagi “Saxovatli kuz” bo‘limidagi “O‘qituvchining o‘gitlari” she’riga shoir ona tilimizning naqadar buyukligi va boyligini ko‘rsatishga harakat qilib, har bir so‘zni niholga qiyoslagan holda so‘zlardan oqilona foydalanishga chaqiradi. She’rda shoir insonning qadri vatani, millati va tilida ekanligini o‘quvchilarga ushbu she’r orqali singdiradi.

Anvar Obidjonning zavq, ilhom va muhabbat bilan yozilgan asarlari bir yo‘la hamma vazifani vijdonan ado etadi: bu she’rlar ham quvnoq do‘st, ham jiddiy tarbiyachi. Uning she’rlarida g‘alati, yoqimli hazil-mutoyiba, yashirin achinish, kulib yig‘lash, muntazam qat’iyatlilik, sirli iboralar, kutilmagan tashbehlar orqali har qanday kitobxonni o‘ziga rom qiladigan qudrat bor.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, o‘qish darslaridagi shoirning ijodiy na’munalarda real hayotda uchraydigan voqealarga ijtimoiy masalar yuklanadi. Yaratilgan hajviylik asosida kishilar munosabatida uchraydigan turli illatlar bilan birga umumxalqqa tegishli bo‘lgan katta ijtimoiy masalalar kutilmagan detallar, holatlar orqali ochib berilgan. Yaratilgan ijtimoiy obrazlar, ilgari surilgan g‘oyalar ijtimoiy hayotning asosi sifatida etirofga loyiq. Bu esa Anvar Obidjon hajviyalarining ijtimoiy mohiyatini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. “Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” Toshkent. “Sharq yulduzi” 2009 yil №3
2. Nazarov B “Anvar Obidjon she’rlarida poetik go‘zallik” www.saviya.uz
3. Jumaboyev M “Bolalar adabiyoti” Toshkent “O‘qituvchi” 2013 yil

MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA SUV RESURLARINI BOSHQARISH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Shomurotov Sharofiddin Shukurjon o‘g‘li

Qo‘qon DPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası
o‘qituvchisi

e-mail: sharofiddin.shomurotov@gmail.com

Bugungi kunda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish mamlakatimiz bo‘ylab 250 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan maydonlarda amalga oshirilmoqda. Mintaqaning asosiy daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqimlari yuqori qismida joylashgan mamlakatlarning amaldagi xalqaro me’yorlarni

buzish orqali transchegaraviy suv resurslarini ekspluatatsiya qilishga intilishlari katta tashvish tug‘diryapti. Mazkur daryolarning yuqori qismlarida ulkan to‘g‘onlarga ega katta gidroinshootlar qurishga doir loyihalarni amalga oshirishga urinishlar mintaqaning butun ekotizimiga tuzatib bo‘lmaydigan ziyon yetkazishi hamda texnogen, ijtimoiy-ekologik va gumanitar halokatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘rta Osiyoda suv resurslari notekis taqsimlangan bo‘lib, umumiy suv zahiralarining 27% Tojikistonga, 27 % Qirg‘izistonga, 39 % Qozog‘istonga, 6 % O‘zbekistonga, 1 % Turkmaniston davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘rta Osiyo hududida ham turli relief shakllari, dashtlar, cho‘llar, vodiylar, vohalar va tog‘lar mavjud bo‘lib, suv tanqisligi bizning hududga ham xavf solishi mumkin. Bu to‘g‘risida Birinchi Prezident Islom Karimov shunday deb ta’kidlaydilar: «Keyingi yillarda OAVda tabiatning ulug‘ ne‘mati – suv haqida ko‘p yoziladigan, ko‘p gapiriladigan bo‘lib qolindi. Bu bejiz emas, BMT ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi davrda sayyoramiz aholisining 2 mlrd ga yaqini ichimlik suvi yetishmasligidan qiynalayapti. Shunday davlatlar ham borki ular yomg‘ir, qor suvlarini, hattoki, yer osti suvlarini ichimlik suvi o‘rnida iste’mol qilmoqda.

Tejamkorlik bilan bog‘liq omilkorlik keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida suv resurslaridan unumli foydalanishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, sohaga suvni tejashga moslashtirilgan ko‘plab yangi texnologiyalar joriy etilib, bir qator chora-tadbirlar tatbiq etilmoqda.

Birgina 2011-yilda mamlakatimizda 2658,2 kilometr uzunlikdagi xo‘jaliklararo sug‘orish tarmoqlari, 9677,7 kilometr xo‘jalik ichki sug‘orish ariqlari tozalangani, 2647 ta gidrotexnika inshooti hamda 2772 ta gidropost ta’mirlangani hamda ham bu boradagi ishlar ko‘lamini his etish uchun muayyan tasavvur beradi. Bu bilan birga ayni paytda O‘zbekistonda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish (SRIB)ni keng joriy etish yuzasidan ham izchillik bilan bir qator say-harakatlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi va Shveysariya xalqaro hamkorlik agentligi hamkorligi doirasida Zarafshon daryosi havzasi va Farg‘ona magistral kanalida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda suv iste’molchilari uyushmalari hamkorligida irrigatsiya tarmoqlari modernizatsiya qilinib, suvdan foydalanishni hisoblash tizimi takomillashtirilmoqda, shuningdek, suvni tejashni iqtisodiy rag‘batlantirish usullaridan foydalanilgan holda ishlab chiqaruvchilar va aholi o‘rtasida faol tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Dunyo mamlakatlarida bir necha yillardan buyon suv resurslari va suv tanqisligi masalalari xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Xususan, har yili 2 fevral kuni jahon hamjamiyati tomonidan muhim sana - Butunjahon suv-botqoqli hududlar kuni (World Wetlands Day) sifatida nishonlanadi. Bevosita ana shu doirada qabul qilingan Ramsar (Eron) konvensiyasiga O‘zbekiston 2001 yilda a’zo bo‘lgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 30 avgustdagi 278-son qarori asosida).

Shu bilan birga, jahon hamjamiyatining e'tiborini suv masalalariga, toza ichimlik suviga talab muhimligi, toza ichimlik suvidan barqaror foydalanish uslublarini targ'ibot qilish masalalariga jalb etish maqsadida BMT Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasining (Rio de Janeyro shahri, 1992 yil) qaroriga muvofiq, har yili 22 mart - Butunjahon Suv resurslari kuni (World Water Day) sifatida nishonlanib kelinadi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2010 yil 20 dekabrda bo'lib o'tgan 69-yalpi yig'ilishida qabul qilingan A/RES/65/154-conli Rezolyusiyaga muvofiq 2013 yil «Suv bo'yicha hamkorlik xalqaro yili» («International Year of Water Cooperation») deb e'lon qilindi.

Bu sohadagi ishlarni davom ettirish va dala sharoitida suv tejamkorligiga erishish uchun katta maydonlarda yetishtiriladigan ekinlar paxta va g'allani sug'orish uchun maxsus kasb yo'nalishiga ega bo'lgan suvchilarni tayyorlash (o'qitish) lozim. Har bir tumandagi qishloq xo'jaligi yoki irrigatsiya va melioratsiya kollejlari qoshida muntazam faoliyat yurituvchi suvchilarni o'qitish kurslarini tashkil etib, uning bitiruvchilariga tegishli sertifikat berilishi lozim. Faqat sertifikatli suvchisi bor fermerlar bilan suv yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish tizimiga o'tilishi dalalarda suv yo'qotilishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi mavjud turli xil muammolarning asosiy sababchisi suv hisoblanadi. Shu bois, mavjud suv iste'molchilari uyushmalarini o'rganib, ularni har bir sug'orish tarmoqlari bo'yicha ma'suliyatini oshirish, har bir tumanlararo kanallar bo'yicha suv iste'molchilari uyushmalarining birlashmalarini tuzish va ularni ushbu kanallar bo'yicha suv boshqaruvida ishtirok etishini ta'minlash-ularning xududlarida suv resurslarini oqilona boshqarish, suv resurslarining samaradorligiga erishish imkonini beradi. Zero, mamlakatimizda har bir tomchi suvni ko'z-qorachig'iday asrashimiz, bu bizning– kelajak avlodlarimiz oldidagi burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yunusov H., Mamatova Z. Transchegaraviy daryolar va yirik to'g'onlar: tahdidlar, talafotlar va xavfsizlik choralari. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015 yil
2. Mahmudov O. Suv resurslaridan tejamli foydalanish hayotiy zaruriyat // O'zbekiston ovozi, 2013 yil 28 mart.
3. www.lex.uz
4. www.norma.uz

МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА СУВНИ ТЕЖОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЖОРИЙ ҚИЛИНИШИ

Шомуротов Шарофиддин Шукуржон ўғли
Қўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси.
e-mail: sharofiddin.shomurotov@gmail.com

	Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida Anvar Obidjon ijodini o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyati	
106	Shomurotov Sharofiddin Shukurjon o‘g‘li Mustaqil O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish sohasidagi islohotlar	441
107	Шомуротов Шарофиддин Шукуржон ўғли Мустақил Ўзбекистонда сувни тежовчи технологияларнинг жорий қилиниши	443
108	Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinfida ehtimolliklar nazariyasini o‘qitilishi	446
109	Xaydarova Dilorom Abduxamidovna Mediata’lim – yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilishning muhim omili	449
110	Xaydarova Dilorom Abduxamidovna Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo‘llari	453
111	Хонбабаев Шохрухбек Дилшоджон угли Факторы, влияющие на развитие национальных и общекультурных компетенций у студентов	458
	Muzaffar Ummatovich Kurbanov Management of the innovation activities of the school pedagogical community in the digital economy	464
112	Тошматов Шухратжон Абдуқосимович Туркистон қишлоқ хўжалигида “ҳарбий коммунизм” сиёсати ва унинг оқибатлари	470
113	Jasurbek Kurbanov Issues of formation of intellectual-innovative competence in the new Uzbekistan education system	477